




TOK MANBAINING ELEKTR YURITUVCHI KUCHINI VA ICHKI QARSHILIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: ampermetr va voltmeter yordamida tok manbaining elektr yurituvchi kuchini va ichki qarshiligini aniqlash.

Kerakli asboblari: laboratoriya universal tok manbai yoki akkumulyator, ampermetr, voltmeter, kalit, ulovchi similar, $10\ \Omega$ va $20\ \Omega$ qarshilikka ega bo'lgan rezistorlar.



Ishni bajarish tartibi

Rasmda keltirilgan elektr zanjirini yig'ing. Zanjirga $10\ \Omega$ qarshilikli rezistorni ulang.

2. Kalit ochiq holda voltmeter ko'rsatishi U_v ni yozib oling. $U_v = \mathcal{E}$ ga teng deb oling.

3. Kalitni ulang va ampermetr ko'rsatishi I_A ni yozib oling.

4. Natijalarni jadvalga ko'chiring.

Nº	U_v (V)	U_2 (V)	I_A (A)	$\mathcal{E}$ (V)	r (Ω)

5. Tok manbaining ichki qarshiligini $r = \frac{\mathcal{E} - U_2}{I}$ formuladan hisoblang va natijani jadvalga ko'chiring.

6. Zanjirga $20\ \Omega$ qarshilikli rezistorni ulang va tajribani takrorlang.

7. 1- va 2-tajribada topilgan r_1 va r_2 larni solishtiring.



1. Elektr zanjirning qaysi qismi ichki, qaysi qismi tashqi zanjir deyiladi?

2. Manbaning EYKi deganda nimani tushunasiz?

3. Manbaning ichki qarshiligi nima hisobiga hosil bo'ladi?